



15.12.2022
Koruyg'u
X

Nurobod tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi

16«11»2022 yil.

197-7-99-OB/2022-son

PUDRAT SHARTNOMASI

Bundan buyon "BUYuRTMACHi" deb ataluvchi Nurobod tumani xokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan X.Primov bir tomondan va bundan buyon "PUDRATCHi" deb ataluvchi "GRANT ME'MOR QURUVCHI SERVIS" MChJ nomidan A.Norboev ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar

1.ShARTNOMA mazmuni:

Ushbu shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" pudrat ishlarini qabul qilish va to'lash, "Pudratchi" esa buyurmachining buyurtmasi bo'yicha qo'yidagipudratishlarinibajarishmajburiyatinioladi:

No	Ishning nomi	Shartnomaning umumiy qiymati (bitim summasi)
1	09.11.2022 yilda berilgan №174438 lotga asosan Nurobod tumani Arabota MFY Tim qishlog'i 4n-562 mahalliy avtomobil yulini joriy ta'mirlash (Ochiq byudjet)	1 176 470 550
	Jami:	1 176 450 550

1.1. Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 1 176 450 550 (Bir milliard bir yuz yetmish olti million to'rt ellik ming besh yuz ellik) so'mni tashqil qiladi

1.2. Ishni boshlash va topshirish muddati: «11» noyabr 2022 y. Tugashi: «31» dekabr 2022 y.

Batafsil bayoni

1	Nuqson dalolatnoma, smeta hujjatlariga asosan Arabota MFY Tim qishlog'i 4n-562 mahalliy avtomobil yulini joriy ta'mirlash	Nurobod tumani avtomobil yulini
---	---	---------------------------------

Alohida shartlar

1	Bajariladigan ishlari sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilishi shart, bajarilgan ish mutaxassislar tomonidan tekshirib olinadi
---	--

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni joriy ta'mirlash ishlari bajarilgandan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, bajarilgan ishlar dalolatnomasi Forma-2 asosida to'laydi.

2.2. Shartnoma narxi elektron savdo natijasi bo'yicha belgilanadiva o'zgartirilmaydi, Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuziladigan xollar bundan mustasno.

2.3. Ishlar yakunlangandan keyin "PUDRATCHi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadi.

2.4. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa xujjatlarni olgandan keyin 10 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki ishlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "PUDRATChI"ga yuborish majburiyatini oladi.

2.5. Rad qilingan holatda, ishlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tamonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi.

3. SHARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda shartnoma talablari va shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Shartnoma shartlarini bajarilishini bir tomonlama rad qilish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosi ta'minlangan taqdirda Shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan pudrat ishlari muddatidan oldin bajarilishi mumkin.

3.5. Xizmat ishlari bevosita Buyurtmachining ma'sul xodimlari tomonidan ishlar xajmi va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI:

4.1. Buyurtmachi;

- savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi

- savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan Shartnoma tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

- tomonlar o'rtasidagi Shartnoma majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.1.1. Ishlarni bajarish kechiktirilgan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda "PUDRATChI" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan "Ishlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Ishlar" bajarish muddati kechiktirilishi yoki to'liq bajarrilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

4.1.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat kursatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi

Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat kursatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.2. "PUDRATChI":

- savdolar qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalarida shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

- Agar bajarilgan ishlar, sifati, standartlar, texnik shartlar, qonun xujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar bajarganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.3. "PUDRATCHI" QO'YIDAGI HUQUQLARGA EGA:

4.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

4.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI:

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni o'zaro hal etishga erishmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlariga asosan bevosita Iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR:

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

7. BOSHAQA SHARTLAR:

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISHI:

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalaridan majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil "31" dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda Shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK.

9.1. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

9.2. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

9.3. Yuridik shaxslar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

10.TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«PUDRATChI»

«BUYuRTMACHi»

"GRANT ME'MOR QURUVCHI SERVIS"
MChJ

Nurobod tuman xokimiyati Obodonlashtirish
boshqarmasi

Manzil: Pastdarg'om tumani Katta Nayman MFY
Mustaqillik ko'chasi 21-uy

Manzil Samarkand vil. Nurobod tumani Yoshl:
kuchasi

Tel./faks

Tel.faks

h/v 20208000200875166001

h/v 4017 2286 0182 3570 4520 4110 004

Bank nomi:Xamkorbank ATB

Bank nomi:Markaziy Bank Toshkent

Bog'ishamol filiali
MFO:01126 STIR 304 398 958

MFO00014 STIR 200779734

OKED: 41202

OKONX 90211

Rahbar

A.Norboev

Rahbar

X. Primov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR**
Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	XAKUL PRIMOV BAXRITDINOVICH
Imzolangan sana	16.11.2022 09:25
Hujjat kodi	VD6202245400
Hulosa kodi	QX7773031135

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

QX7773031135

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Arabota MFY Tim qishlog'i 4n-562 mahalliy avtomobil
yulini joriy ta'mirlash to'g'risida pudrat shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: NUROBOD
TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan
10.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul
qilish maqsadga muvofiq.

Nurobod tuman
yuridik markazi
markaz rahbari:



N.Z.QUVONDIQOV

15.11.2022

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" barcha shartnomani g'aratchilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kunda boshlab
10% hisobida qonun hujjatlariga muvofiq shartnomaga asoslanib, shartnomadagi 70% hisobida shartnomaga
asoslanib 10% hisobida qonun hujjatlariga muvofiq shartnomaga asoslanib, qolgan 70% ni joriy ta'mirlash ishlar
dalolatnomasi forma-2 asosida to'laydi.

2.2. Shartnomaga asoslanib elektron asvda olingan bo'lgan bo'lganida o'zgartirilmaydi. Shartnomaga
asoslanib kelishuv bo'ladigan xollar barcha hujjatlar...

2.3. Ishlar yakunlangandan keyin "PUDRATCHI", "Buyurtmachi" barcha hujjatlar
to'g'risida dalolatnomasi barcha hujjatlar...